

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***60410900-Biznesni boshqarish bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti
Millat Umidi universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” iyun dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	8
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60410900 - Biznesni boshqarish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi (Oliy harbiy ta’lim muassasalari bundan mustasno). Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talablari 60410900-Biznesni boshqarish ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

baklavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

“Biznes, boshqaruv va huquq” ta’lim sohasiga oid yo’nalish bo’lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo’jalik yurituvchi sub’ektlari, moliya, kredit va sug’urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta’lim, o’rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy, moliya, marketing, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o’z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko’nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo’naltirilgan

inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi;

davlat va shaxs hamda xo‘jalik faoliyati sub’ektlarining iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, iqtisodiyot sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya organlarida boshqaruv jarayonlari;

iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assosiasiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish;

tarmoqlar va sohalar iqtisodiyoti sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni, mirko va makro iqtisodiy makonda iqtisodiy ko‘rsatkichlarining tahlili jarayonlari.

tarmoqlar va sohalar korxonalarida investision va innovasion loyihalarni moliyalashtirish;

iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalarida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

61010900 - Biznesni boshqarish ta’lim yo’nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalar, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish;

iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy rivojlanish sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

tarmoqlar va sohalarda bo'yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

ilmiy va amaliy faoliyatda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va ekotizim vositalarini rivojlantirish;

iqtisodiyot tarmoq va sohalari korxonalarida yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil etish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me’yorlari va talablari asosida tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar ko‘rsatkichlari o‘zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;

tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo‘llash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo‘linmalarini tashkil etish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo‘llash;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo‘llash;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatida:

yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

o‘z biznesini yaratish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda

ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lish;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda iqtisodiy tamoyillarni qo'llay bilishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, iqtisodiy sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazishni bilish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	IQN1106	Iqtisodiyot nazariyasi 1	180	6	1
1.03	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	1
1.04	XT1106	Xorijiy til 1 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	180	6	1
1.05	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.06	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	XT21204	Xorijiy til 2 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	120	4	2
1.08	IQN1204	Iqtisodiyot nazariyasi 2	120	4	2
1.09	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.10	AKKK1204	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	2
1.11	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.12	BK11210	Biznes asoslari	300	10	2,3
1.13	FAMBUS1205	Oilaviy tadbirkorlik	150	5	3
1.14	STAT1305	Statistika	150	5	3
1.15	EKMET1305	Ekonometrika	150	5	3
1.16	MIKIQ1305	Mikroiqtisodiyot	150	5	3
1.17	TADINN13410	Tadbirkorlik va innovatsiyalar	300	10	3,4
	FAL1304	Falsafa	120	4	4
1.18	MENJ1405	Menejment	150	5	4
1.19	KOMTB1405	Kompaniyalar tashkil etish va boshqarish	180	6	4
1.20	MAR1505	Marketing	150	5	5
1.21	LIDER1505	Liderlik	150	5	5
1.22	TZB1505	Ta'minot zanjirini boshqarish	150	5	5
1.23	BIZSTR15610	Biznes strategiyasi	300	10	5,6
1.24	BIZRAQ1605	Biznesni raqamlashtirish	150	5	6
1.25	BIZBAH1605	Biznesni baholash	150	5	6
1.26	MOLMEN1405	Moliyaviy menejment	150	5	6
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	4-7
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	4-7
Kvalifikatsiya		Iqtisodechi			
		Jami	6300	210	
		Malakaviy amaliyot	900	30	8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		Jami	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o‘quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o‘qib o‘rganish natijalari, o‘quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqobat, raqobatbardoshlik, sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya, tarkibiy o‘zgarishlar, yangilanish va miqdoriy o‘sib borishi, ishlab chiqarish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, xalqaro ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, aralash iqtisodiyot, iqtisodiy sikllar, iqtisodiy o‘sish, ish haqi, agrar munosabatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, mulkchilik munosabatlari, investitsion muhit, o‘qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor T. Teshabayev

2024 yil « 14 » 06



Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Prorektori X. Komilova

2024 yil « 14 » 06



Millat Umidi universiteti

Rektori y.b. D. Ishmanova

2024 yil « 14 » 06



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev

2024 yil « 25 » 06

M.O'.



O'zbekiston Savdo-Sanoat Palatasi

Raisi o'rinborari D. Qurbonov

2024 yil « 19 » 06

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Biznes va
tadbirkorlik oliy maktabi

Direktorning birinchi o'rinbosari
Sh. Sharaxmetov

2024 yil « 21 » 06

M.O'.



"O'zbek Lizing International" AJ

Direktor Z. Mustafayev

2024 yil « 21 » 06

M.O'.

